

ESTETIK TARBIYA

Abdualiyeva Jasmina Abduqaxxor Qizi

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika Fakultetining Pedagogika
Yo`Nalishi Talabasi*

``Tafakkur Qiluvchi Va His Qiluvchi Insonni Tarbiyalash Uchun, Avvalo, Uni
Estetik Jixatdan Tarbiyalash Lozim`` Olmon Yozuvchisi F Ridrix Shiller

Bilamizki, hayotimiz davomida ham ilmiy ham nazariy jihatdan biz ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi, aqliy tarbiya, huquqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya haqida ma`lumot to`plab o`rganib oldik. Bular ichida aynan estetik tarbiya alohida o`rin va mazmun kasb etadi. Estetik tarbiyani ko`plab manbaalarda nafosat tarbiyasi deb ham atashadi. Nafosat tarbiyasi barkamol shaxs tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. O`quvchilarda nozik didlilikni, go`zallikni fahmlay va qadrlay olishga o`rgatish nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biridir. Estetik tarbiya o`quvchilarni voqealidagi, san`atdagi, tabiatdagi, turmushdagi go`zallikni idrok qilish hamda to`g`ri tushunishga o`rgatish, ularning badiiy didini o`stirish, ularda go`zallikka muhabbat uyg`otish va hayotiga go`zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Estetik tarbiya masalalari yaqin o`tmish emas, balki qadimiy tarixdan dalolat beradi. CHunonchi Qadimgi sharq, Qadimgi Yunon, qolaversa, O`rta asr faylasuflari voqelikni estetik idrok etish, go`zallikni his qilish va ulug`vorlikni anglash nafaqat nafosat tarbiyasi orqali amalga oshishi, balki tarbiyaning mazkur shakli ma`naviy kamolotining muhim sharti sifatida ham ta`kidlaganlar bugungi kun tartibotlari ham insonni estetik olamga yaqinlashtirish, go`zallikni his qilishga o`rgatish orqali tafakkurni tarbiyalashga jiddiy e`tibor qaratilmoqda. Estetik a yunoncha his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir inson bilan dunyo o`rtasidagi qadriyat munosabatlarining o`ziga xos tomonlarini va kishilarning badiiy faoliyati sohasini o`rganuvchi falsafiy fan. Estetika terminini fanga nemis faylasufi Baumgarten 1735 yil ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go`zallikni falsafasi, san`at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo`llanib kelingan. Estetika o`z ichiga san`at estetikasi, tabiat estetikasi, texnika estetikasi, dizayn sport estetikasi, turmush estetikasi atrof –muhitni go`zallashtirish va boshqa sohalarni qamrab oladi. Estetik tarbiya barcha davrlarda ijtimoiy –ma`naviy hayotning muhim e`tiborida bo`lganligin sababli uning mohiyati va maqsadiga ham turlicha yondashuvlar shakllandi. Xususan, estetik tarbiyaning maqsadini: a) badiiy tafakkurni yuksaltirish b) ijodiy faollikni oshirish v) go`zallikni xunuklikdan farqlash g) didni tarbiyalash d) estetik hodisalarga munosabat ko`nikmasini shakllantirish bilan bog`liq masalalar



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



orqali shakllanadi .Bu kabi yondashuvlar estetik tarbiyaning asosiy maqsadi-estetik boy dunyoqarashga ega bo`lgan shaxsni kamol toptirish hamda avlodlararo estetik tajribani ommalashtirish.Shu ma`noda estetik tarbiya – jamiyatda ma`naviy muhit barqarorligini ta`minlash hamda badiiy tafakkur hamda yuksak didni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ma`naviy jarayon.Estetik tarbiya mazkur jarayonda yosh avlodni go`zallik haqidagi tuyg`ularini tabiatga bo`lgan munosabatini , badiiy adabiyotga qiziqishini , jamiyat ma`naviy rivojidagi yangichab qarashlarini go`zallik va ulug`vorlik asosida tarbiyalash hamda sportning estetik mazmuni ,mohiyati, maqsadi va undan zavqlanish yo`llarini to`laqonli o`zlashtirishdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.Odatda ijobiy fazilatlar, badiiy estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko`rk bag`ishlaydi .Tarbiya, ayniqsa , estetik tarbiya hayotning mazmuniga ko`rk bag`ishlaydi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib , shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo`lgan holatlarni keltirib chiqaradi.Pirovardida , inson bunday maqsadlarning ta`siridan zarar ko`radi.Yashashdan maqsadi o`z shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan , payti kelganda birovning nomini sotib bo`lsada, ehtiyojini qondirishga zo`r beruvchi kimsalar shunday holatga tushib qoladilar,nafaqat o`zlariga ,balki yon-atrofidagilarga jamiyatga zarar yetkazadilar.Hayotiy munosabatlarning ijobiy xulq –atvor bilan yo`g`rilmaganligini bu kabi holatlarni yuzaga keltiradigan asosiy sabab deb bilish mumkin.Jamiyatimizda ma`naviy yuksalishning yangi bosqichi boshlangan hozirgi davrda ``etika`` va ``estetika`` fanlarini o`qitish, o`rganishga bo`lgan ehtiyoj yanada ortayotganini kuzatish mumkin.Ayniqsa 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha HHarakatlar strategiyasini amalga oshirish axloqiy va estetik tafakkurni yangilash hamda boyitishni taqozo etadi.Endilikda ,davlat xizmatlarining kasbiy tayyorlagarlikni axloqiy va estetik madaniyatdan ayri tasavvur qilib bo`lmaydi.Bu maqsadga erishish uchun bo`lajak mutaxasis va davlat xizmatchisi , avvalo ,Etika va estetika ga oid bilimga ega bo`lishi zarur.O`zbekiston Respublikasining prezidenti SHavkat Mirziyoyevning davlat xizmatchilaridan O`zbekistonning taraqqiyoti bilan bog`liq masalalarda yuksak axloqqa asoslangan harakatni, maqsadga muvofiq bo`lgan odobni shaxsan talab qilmoqda. Bu borada mamlakatimizda vazirlik va muassasalar o`z xodimlari orasida axloqiy xulq talab va normalari xabardorligini oshirish bo`yicha harakat rejalarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.Bu holat ta`lim muassasalarida Etika va estetika fanlarini o`qitishga bo`lgan ehtiyojni kuchaytirish barobarida fanning zarurligini ham belgilaydi.

Faxm va farosat, u bilan bog`liq masalalar bevosita hamda bilvosita estetika ilmida o`rganiladi .Bu tushuncha boshqa ijtimoiy –gumanitar fan sohaklarida hozirga qadar ko`makchi , yordamchi vazifasini bajarib keladi. Shuning uichun

ham estetikaga doir rus tilidagi yoki boshqa adabiyotlarda bu tushuncha ``did`` iborasi bilan izohlanaveradi.``Fahm farosat tushunchalarining mazmun –mohiyati borasida mustaqillik davrigacha hech bir ilmiy manbaada biror jo`yali fikr aytilmagan .Ayniqsa , Husayn Voiz Koshifiyning mashhur ``Axloqi muxsiniiy asari diqqatiga sazovor .Xususan, asrning ``Farosat bayoni`` deb nomlangan 34 bobida ``farosat`` atamasining lug`aviy ma`nosiga ``biror narsaning yaxshi va yomon xususiyatini ko`rib aniqlash bo`lib, farosat hukumat ishlari orasidagi ulug` shartlardan biridir.Alloma talqinida farosatning ahamiyati ``Xukumat ziynati farsat zevari bilan go`zaldir`` hamda ``Xar bir narsa farosat ahlidan yashirin emas farosat Haq taoloning mo`min bandaga bergan nuri``degan tamoyillarining mohiyatini esa payg`ambarimiz Muhammad (S.A.V)ning qo`rqinglar mo`min farosatidan,u Xudo nuri bilan qarab har narsaning zamiriga yeta oladi.``degan hadisni asoslaydi.Shuningdek , mutafakkir inson aksirish binosini farosat dalillariga qo`yish kerak, o`zining pok zehni , tafakkuri ,mulohazasiga ham murojaat qilishi zarurligini uqtiradi .Yana bir alloma Burxoniddin az-Zarnijiy esa sabr, qanoat farosatni aynan shu fazilat orqali ro`yobga chiqishini ta`kidlaydi.Estetik tafakkur tarixida farosat ilmi nozik vva nazokatli ilm sifatida o`rganilgan .Shu bois farosat ilmi kishining ichki dunyosi bilan tashqi ko`rinishi o`rtasidagi bog`liqlikni o`rganuvchi ilmlar sirasiga kiradi.Chunonchi olmon mumtoz falsafasining vakili Ummanuil Kant bu ilmga ``botiniy olamni o`rganuvchi ilm`` deb ta`rif bergan.Qomusiy olim Abudulla sher ``estetik did`` tushunchasining o`ziga xos jixatini idrok, faxm, farosat, kabi ildizi aqlga borib taqaladigan tushunchalar bilan bog`laydi : faxm-aqliy , farosat –axloqiy,did estetik qobilyatni yuzaga chiqaradi, degan fikrni bildiradi.Aytish lozimki, estetik tarbiyaning vazifalari mavjud : - tabiatda , harakatlar,san`atni ko`rish va his qilish qobilyatini rivojlantiradi ;- go`zal tushunish :-badiiy faoliyat ko`nikmalarini shakllantirish.Estetik va badiiy tarbiya shartlari va vositalari:Bola o`sadigan va rivojlanadigan muhit agar vaziyat estetik bo`lsa ,bola odamlar o`rtasidagi chiroyli munosabatlarni ko`radi , go`zal nutni eshitadi.San`at (visual,musiqa,adabiyot,,arxitektura,teatr)(san`at bilan erta tanishish estetik idrikning paydo bo`lishiga yordam beradi.Badiiy faoliyat (teatr o`yinlari , og`zaki va ijod, vizual va bezak amaliy amaliyot , dizayn .Hayot bu vaziyatning estetikasidir.U atrofidagi narsalar , bolalarning kiyimlari,mehmonlarning kelishi bilan emas, balki doimiy bo`lishi kerak.Voyaga yetganlarning tabiati o`zining ``Talim imkoniyatlari (har kuni go`zal parkni o`zingiz go`zal va g`ayri oddiy daraxtlar va boshqalar ko`rmasdan turib ko`rishingiz mumkin.

- Estetik tarbiya usullari : kuzatuv, tushuntirish , tahlil, voyaga yetganlarga taqliq misol , mashq,estetik vaziyatlar usuli.Estetik tarbiya quyidagilarga hissa qo`shadi: -hissiy tajribani boyitish ,shaxsning hissiy rivojlanishi bilishga ta`sir qiladi voqelikning axloqiy tomonidir.Ammo aynan estetik tarbiyani oshirishi mumkin



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



boʻlgan ommaviy madaniyat` ba`zida aks ta`sirga ham ishlayotgani esa juda achinarli .Ommaviy madaniyat tushunchasi sivilizatsiya bilan bevosita bog`liq bo`lib, ko`pincha uning mahsuli sifatida qaraladigan hodisani anglatadi.Ispan faylasufi Xose Ortega Gasset o`z davrida omma hayotiga zamonaviy taraqqiyot mahsuli bo`lmish texnika –texnologiyalarning qudratli kuchi singib bordi, biroq , inson ma`naviyati va individualligi chetga surib qo`yila boshlanganligini uqtirgan edi.Uning fikriga ko`ra,ommaviy madaniyat insonni ``qiyofasiz oqimning bir qismiga aylantirib, undagi barcha arxaik sarqitlarning niqobsiz yuzaga chiqarib yuboradi .``Bunday insonni qanday hayot va nimalar kutmoqda ?``,- degan savolga esa faylasuf :``Xech narsa .Chunki odam o`z individualligini yo`qotib, borar ekan, qobiliyat va imkoniyatlari katta bo`lishiga qaramay , hech narsa yarata olmaydi.Hayotni befarq kuzatuvchi tomoshabinga aylanib, ommaviy madaniyat ta`sirida o`zi ham mavjud hayotni go`yo sarob kabi tasavvur qiladi`` - deydi.Estetik tarbiya masalasiga e`tiborsizlik bugungi kunda tashvishlin va taxdidli hodisa sifatida e`tirof etilayotgan ``ommaviy madaniyat`` insonni ``qiyofasiz oqimning bir qismiga aykantirib qo`yishi g`oyatda xavotirlidir.Bu salbiy hodisa aksariyat hollarda haqiqat , go`zallik ,ezgulik, singari muqaddas tushunchalarni umumiste`molchilik ehtiyoji bilan bog`lab, iste`mol va Tovar sifatida bo`lishiga qaratilgan maqsadli targ`ib qiladi. Bu esa adabiyot , san`at degan manaviyatga taxdid soluvchi hodisalarning gullab yashnashi`` uchun imkon yaratadi. XXI asr ``ommaviy madaniyatga zaminaviy qiyofada go`yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalash niqoblari ostida namoyon bo`lmoqda .Xulosa qilib aytish mumkinki , bugungi kunda tashvishli va taxdidli hodisa sifatida e`tirof etilayotgan ``ommaviy madaniyatning avj olishi estetik tarbiya masalalariga e`tiborsizlik natijasida yuzaga keladi .Shuni nazarda tutgan holda O`zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ``Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch asarida ``Tabiiyki ommaviy madaniyat degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo`ravonlik ,individualism, egosentrizm g`oyalarini tarqatish , kerak bo`lsa , shuning hisobidan boylik ortirish , boshqa xalqlarning necha ming yillik anana va qadriyatleri, turmush tarzining ma`naviy negizlariga bepisandlik ularni qo`porishga qaratilgan xatarli taxdidlar odamni `tashvishga solmay qo`ymaydi`` , deya ogohlantirgan edi.Binobarin ,estetik tarbiyalangan odamlarning ma`naviy qiyofasini uning savodxonlik darajasi bilan birga , uning adabiyotdan , san`atdan savodi yuksakligi bilan belgilash mumkin.Zero, odamlarning tarbiyasi qanday bo`lsa , jamiyatning ma`naviy qiyofasini ham shunga yarasha bo`ladi.